



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

YANGI RENESSANS

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

2026



+998335668868



www.innoworld.net

Google Scholar



zenodo





YANGI RENESSANS

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

2026

3-JILD 1-SON



YANGI RENESSANS

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

TO'PLAMI

3 - JILD, 1 - SON

2026



www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026



Korreksion pedagogika asosida inklyuziv ta'limni tashkil etish**Siddiqov Azamat Muhammadjon o'g'li**

Namangan davlat pedagogika instituti

Abduvaliyeva Marjona Kamoldin qizi

Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika yo'nalishi 1 bosqich talabasi

email: marjonaabduvaliyeva006@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada korreksion pedagogika tamoyillariga asoslangan inklyuziv ta'limni samarali tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Inklyuziv ta'limning mohiyati, alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalarni umumta'lim muhitiga integratsiya qilish jarayoni hamda ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ilmiy asosda tahlil qilingan. Shuningdek, korreksion pedagogikaning diagnostika, rehabilitatsiya, individual rivojlantiruvchi dasturlarni tuzish, moslashtirilgan ta'lim metodlari va pedagogik texnologiyalarni qo'llashdagi o'rni batafsil ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari inklyuziv yondashuvni joriy qilish korreksion pedagogika vositasida o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvini, o'ziga ishonchini va ta'lim sifati samaradorligini oshirishini ko'rsatadi.

KALIT SO'ZLAR: Inklyuziv ta'lim, korreksion pedagogika, alohida ta'lim ehtiyojlari, diagnostika, individual rivojlantiruvchi dastur (IRD), moslashtirilgan ta'lim, defektolog, psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash, rehabilitatsiya, pedagogik integratsiya, maxsus ta'lim texnologiyalari.

KIRISH. Bugungi kunda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar barcha bolalarga teng imkoniyat yaratish, ularning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishni talab qilmoqda. Xususan, alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalarni umumiy ta'lim tizimiga integratsiya qilish va ularning ijtimoiy-psixologik moslashuvini ta'minlash inklyuziv ta'limning asosiy vazifalaridan biridir. Inklyuziv ta'lim — bu bolaning mavjud nuqsoni yoki cheklovidan qat'i nazar, har bir o'quvchining to'laqonli ta'lim olish huquqini ta'minlovchi ilg'or yondashuv bo'lib, uning samaradorligi korreksion pedagogik faoliyat bilan chambarchas bog'liqdir. Korreksion pedagogika alohida ehtiyojli bolalar rivojlanishidagi og'ishlarni aniqlash, korreksion tuzatish chora-tadbirlarini belgilash, individual rivojlantiruvchi dasturlar ishlab chiqish va ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ilmiy-amaliy yo'nalish hisoblanadi. Ushbu yo'nalish inklyuziv ta'limning poydevori bo'lib, o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish jarayonini moslashtirishga, ularning imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi[1]. So'nggi yillarda O'zbekiston ta'lim tizimida ham inklyuziv ta'limni rivojlantirish, maxsus pedagoglarni tayyorlash, umumta'lim maktablarida moslashtirilgan muhit yaratish va pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish yo'nalishida keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda. Shu

bois, korreksion pedagogikaning nazariy asoslarini o'rganish va uni amaliyotga joriy etish inklyuziv ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi[6]. Korreksion pedagogika -aloxida yordamga muxtoj jismoniy yoki ruhiy kamchiliklari bor bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi xususiyatlarini o'rganadigan, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fandır. Korreksion pedagogika so'zi (lotincha tuzatishbartaraf etish) , pedagogika- ta'lim-tarbiya, o'rganish degan so'zlardan olingan. Ruhiy va jismoniy kamchiliklari bor bolalar anomal bolalar deyiladi (yunoncha odatdan tashqari, noraso degan ma'noni bildiruvchi anomalos suzidan olingan). Korreksion pedagogika fanining mavzu bahsi anomal, aloxida yordamga muxtoj bolalardir. Korreksion pedagogikaning vazifasi anomaliyalarning kelib chiqish sabablari, turlarini, anomal bolalarning psixofiziologik rivojlanishdagi xususiyatlarini o'rganish, shular, asosida integratsiyalashgan, inklyuziv yoki differensial ta'limni tashkil etish, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanishdir. Korreksion pedagogika fanining maqsadi anomal bolalarga integratsiyalashgan-inkiyuziv differensial ta'limni tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlarni o'rganish, ulardagi psixofiziologik kamchiliklarni iloji boricha bartaraf etish, tuzatish yoki bilinmaydigan holga keltirish usullarini belgilash va amaliyotda tatbiq etish yo'llarini tarbiyachi hamda o'qituvchilarga ko'rsatib berishdan iborat[1]. Anomaliyalar har xil bo'ladi, ularning ba'zilar batamom bartaraf etiladi, ba'zilar bir qadar tuzatiladi, korreksiyalanadi, boshqalari esa bilinmaydigan holga keltiriladi, ba'zilar esa kompensatsiyalanadi. Bola nutqida qo'pol kamchiliklar bo'lsa, to'g'ri tashkil etilgan logopedik choralarni o'z vaqtida ko'rish yo'li bilan ularni to'liq bartaraf etish mumkin. Boladagi nuqson organik kamchiliklar natijasida paydo bo'lgan bo'lsa (masalan, oligofreniya shunday nuqson jumlasiga ki uni to'liq bartaraf etib bo'lmasa ham, biroq qisman tuzatish mumkin pedagogika amaliyotida yana shunday anomaliyalar uchraydiki, u ham, korreksiyalab ham bo'lmaydi, masalan, tug'ma ko'rlik yoki karlik shular jumlasidandir. Bunda ko'rish analizatorining vazifasini sezgi organlariga, eshitish analizatorining vazifasini esa ko'rish analizatoriga yuklash, ya'ni kompensatsiyalash, o'rnini bosish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYA

Korreksion pedagogika boshqa fanlarga nisbatan yangi fan sanaladi. Bu fan asosan 19-asrning o'rtalarida rivojlana boshladi. Bu fanning rivojlanishida buyuk psixolog professor L.S.Vigotskiyning hizmatlari katta hisoblanadi. 1925-yil Maskva shahrida Eksperimental defektalogiya instituti tashkil etildi. Bu institutni L.S. Vigotskiy boshqargan. L.S.Vigotskiy anomal bolalar rivojlanishidagi hususiyatlarni o'rganib chiqqan va nuqsonlarning murakkab tuzilishi haqida ham ta'limot ishlab chiqqan. U "Korreksion pedagogikaning asosiy muammolari" kitobida anomal bolalar bilan rivojlantiruvchi ta'lim olib

borish kerakligini, korreksiya va kompensatsiya usullarini o'rganib chiqdi va ularni amalga oshirishning usullarini yoritib berdi. L.S.Vigotskiy anomal bolalarning "salbiy", "ijobiy" tomonlarini o'rganib chiqib ta'lim tarbiyani bolaning potensial qobiliyatini inobatga olgan holda tashkil qilish zarurligini uqtirdi. U defektologiya sohasida kata nazariy meros qoldirgan va shu bilan birga defektologiya fanining asoschisi hisoblanadi[1]. O'zbekistonda korreksion pedagogikaning rivojlanishi 1967-yildan boshlab keskin o'sib bordi. Sabab shu yili Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika institutining Pedagogika va Psixologiya fakultetining qoshida oligafrenopedagogika bo'limi yaratildi. Bu bo'limga 1976-yil surdopedagogika bo'limi ham qo'shiladi. Mustaqil defektologiya bo'limida 1984-yildan boshlab bir nisha bo'limlarda ta'lim berila boshlanadi. Inklyuziv ta'limda maktabdagi jismoniy sharoit ham katta o'rin tutadi. Oddiy qilibaytadigan bo'lsak, barcha maktablar eshigiga o'quvchilar zinapoyalar orqali kirib boradilar. Lekin bu zinapoyalardan maxsus aravachalarda yuradigan nogiron bolalar ko'tarila olmaydilar, hattoqo'ltiqtayotqda yuradigan bolalar ham, qiynalishlari mumkin. Demak, zinapoyalardan ham, eshiklardan ham sog'lom bolalar bilan birga nogiron bolalar ham bemalol o'tishlari uchun qulaysharoit yaratilishi shart. Bundan tashqari, sinf xonalari va laboratoriyalardagi maxsus o'rindiqlar hamda moslamalar ham nogiron bolalarga mos bo'lishi kerak. O'qishga imkon yaratish ham juda muhimdir[5.6]. Yozish qobiliyatlarida buzilish mavjud bo'lgan bolalarga tovush tasvirnikattalashtirish yetarli bo'lmaydi. Bunda o'quvchilar imo-ishora yoki Brayl xatini puxta o'rganishlari kerak. Aqliy nuqsoni bor bolalar soddalashtirilgan yozma yoki og'zakiinformatsiyani olishlari kerak. O'quv rejasini bunday differensiyalash o'qituvchilarda o'z ishlarigaijodiy yondashishni taqozo etadi. Maktab ma'muriyati buning uchun o'qituvchilarga imkonyaratib berishi kerak. Bunday ijodiy yondashuv. o'quv rejasiga qattiq talab qo'yilgan joylardabirmuncha qiyinchilik tug'dirishi mumkin[2]. Inklyuziv ta'lim tizimini samarali tashkil etish, barcha imkoniyati cheklangano'quvchilarni umumta'lim tizimiga qamrab olish hamda ijobiy natijalarga erishish uchun mavjudmuammolari ularni bartaraf etish yo'llarini izlab topish hamda amalga oshirish lozim. Buyuk Britaniya davlati "Bolalarni qutqaring" tashkiloti, uning boshqa mamlakatlardagi tashkilotlari inklyuziv ta'limdagi asosiy to'siqlarni xalq ta'limi tizimi va maktablarga qo'yadi[3]. Defektologiya bu pedagogik fan. Defektolog o'qituvchi faqat nazariy bilimlarni egallagan bo'libgina qolmas amaliy malaka va ko'nikmalarni ham egallagan bo'lishi zarur. Defektologning vazifasi pedagogik, psixologik, defektologik bilimlar asosida o'quvchilarga ilmiy bilim berish, malaka va ko'nikma bilan qurollantira bilish, tarbiyaviy ishlarni individual, guruhviy va keng ko'lamli mashg'ulotlarni rejalashtira bilish, o'quvchilarning jamoa, individual faoliyatlarini tashkil eta bilish, ularning jamoat ishlarini tashkil eta bilish,



pedagogik rahbarlik, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil qila bilish va ularga rahbarlik qilish, ota-onalar va jamoatchilik o'rtasidagi ishlarni tashkil qilish, sport kuzatishlar, amaliy ishlar va boshqa tarbiyaviy ishlarni olib borishdan iboratdir. Har bir ota-ona o'z farzandini har tamonlama yetuk, bilimli va jamiyat rivojiga hissa qo'shadigan. yoshlar qatorida bo'lishini istashadi. Sog'ligida nuqsoni bor bolalar bunday talablarga javob bera olmaydi degan fikr yo'q va bunday fikrning oldini olish uchun anomal bolalarga ta'lim-tarbiya beruvchi maxsus bilimlarga ega pedagoglar yetishtirilmoqda.

NATIJALAR. O'zbekistonda korreksion pedagogika fanining rivojlanishi 1967 yildan boshlab tezlashdi, chunki shu yili Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika institutining Pedagogika va psixologiya fakulteti qoshida oligofrenopedagogika bo'limi tashkil etildi. Bu bo'limga 1976 yili surdopedagogika bo'limi qo'shildi. 1984 yili esa mustaqil defektologiya fakultetining bir necha bo'limida ta'lim berila boshlandi. Hozirgi kunda TDPU BTU va defektologiya fakultetida Defektologiya kafedrası faoliyat ko'rsatmoqda, defektolog bakalavr va magistrilar taxsil olmoqdalar. Tallim kunduzgi va sirtqi bo'limda uzbek va rus tilida tashkil etilgan[4]. Defektologiya fanining rivojlanishi natijasida undan quyidagi tarmoqlar kar, mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi: surdopedagogika (lotincha surdus gung so'zidan olingan) eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan; tiflopedagogika (yunoncha tiflos - ko'r, so'qir so'zidan olingan) -ko'zi ojiz bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan; oligofrenopedagogika (yunoncha oligos kam, fren aql), so'zlaridan olingan, bilan shug'ullanadigan fan; tarbiya so'zlaridan olingan) aqliy tomondan zaif bolalarning ta'lim-tarbiyasi so'z, logopediya (yunoncha logos og'ir nutq nuqsonlarini o'rganish, oldini olish, bartaraf etish yo'llari, usullarini o'rganadigan fan aylanadi[4]. Kichik yoshdagi bolalarning eshitish qobiliyati nutqi rivojlangandan so'ng, masalan, ikki yoshida yo'qolganida ham karlik natijasida bola atrofdagilar nutqini eshitmaydi va hattoki bilganlarini ham asta-sekin unutadi, boladagi karlik bilan soqovlik qo'shilib u kar-soqov bo'lib qoladi. Bolaga o'z vaqtida maxsus yordam ko'rsatilmasa, unda aqli zaiflik belgilari ham paydo bo'ladi. Biroq nuqsonning o'rnini to'ldirib, boshkaruvchi jarayonlarni aktivlashtiruvchi maxsus, korreksion rostlaydigan sharoit boladagi nuqsonlarni bartaraf etib, ularning ham nugqiy rivojlanishini, ham umumiy, aqliy rivojlanishini ta'minlaydi. Zaif eshituvchi bolalar uchun maxsus tashkil etilgan maktabgacha tarbiya muassasasi hamda maktab-internatda barcha zarur shart-sharoitlar mavjud. Maxsus muassasalardagi tarbiyachi va o'qituvchilar bunday bolalarning tegishli ta'lim-tarbiya olishlariga yordam berishlari kerak. Korreksion va inklyuziv ta'limning o'rni juda muhim hisoblanadi. Anomal bolalarning ta'lim va tarbiya olishi maxsus bilimga ega bo'lgan defektolog o'qituvchilarga topshirilgan va ushbu yo'nalishdagi





o'qituvchi kadrlarni yetishtirishga ham kata e'tibor qaratilgan va imkoniyatlar yaratilgan. Jamiyatda har kim o'z o'rniga ega bo'lishi zarur. Inklyuziv hamda korreksion pedagogika ham shu fikrni oqlagan holda sog'ligida nuqsoni bor bolalarning jamiyatda o'z o'milarini topishga kata yordam beruvchi ta'lim shakllari sanaladi. Ruhiiy yoki jismoniy sog'ligida nuqsoni bor bolalar bilan shug'ullanuvchi o'qituvchilar ularga ta'lim-tarbiya berish jarayonida iloji boricha nuqsonlarni yo'q qilish yoki bilinmaydigan holga keltirish, ruhiy holatini yaxshilash va kelajakda yaxshi hayot kechirishlariga umid uyg'otish hamda shuning uchun harakat qilishga undash kabi vazifalarni bajaradilar. Bolalarni himoya qilish xalqaro tashkiloti Konvensiya tizimiga o'zining asosiy maqsadi etib bola huquqlarini asos etib oladi. Bola huquqlari xalqaro Konvensiya hamma bolalarning ehtiyojini hisobga olgan, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan ta'lim tizimini yaratish g'oyasini ilgari surdi. Chunki har bir bolada u sog'lommi yoki nogironmi qiziqish, imkoniyat va bilimga ehtiyoj bor[7].

XULOSA. Anomal bolalarning jamiyatdan, o'z tengdoshlaridan uzilib qolishini oldini olish har bir insonning vazifasi sanaladi. Ruhiiy yoki jismoniy jihatdan sog'lom bo'lmagan bolalarni chetlash ularning ruhiy holatini yanada tushkun holatga tushirib qo'yadi va u bolada kelajak hayot uchun qiziqish qolmaydi va bugungi kuni ham u uchun ahamiyatsiz bo'lib qoladi, ko'pchilik orasidan o'zini olib qochadigan va boshqa insonlar bilan birga vaqt o'tirishni xohlamaydigan bo'lib qolishiga olib keladi. Bolaning o'zgalar bilan muloqotda bolmasligining ko'plab salbiy tomonlari mavjud. Masalan: o'zgalar oldida fikrini bayon qila olmaslik, agressiv holatga tushib qolish, o'zgalar bilan fikr almashish orqali yangi bilimlarga ega bo'lish, quvnoq davralarda bo'lmaslik, o'zgalarga nafrat bilan qarash, hayotdan zavq ola bilmaslik va boshqalar. Anomal bolalarning ta'lim olish jarayonini yaxshi tashkil qilish zarur, ularning o'zgalar bilan muloqatini yaxshi yo'lga qo'yish ham muhim hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim jarayonida nuqsoni bor bolalarning sog'lom bolalar tomonidan chetlatilishiga, masxara qilinishiga qarshi kurashish juda muhim va bu belgilarning oldini olish darkor. Bu vazifani bajarishda o'qituvchining ro'li muhim. Anomal bolalarning ruhiy holatini yanada yaxshilash uchun ularni ko'plab quvnoq sahna ko'rinishlarini tomosha qilishga, tabiat qo'ynida sayr qilish uchun sayohatlarni tashkil etish lozim. Korreksion pedagogika asosida inklyuziv ta'limni tashkil etish ta'lim tizimida barcha bolalar uchun teng imkoniyat yaratishga xizmat qiladi. Maxsus ehtiyojli bolalarning rivojlanishida individual yondashuv, pedagogik korreksiya texnologiyalaridan foydalanish, ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash hamda o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish muhim omillardan biridir. Inclusive ta'lim nafaqat maxsus ehtiyojli bolalar, balki barcha o'quvchilar uchun ham tolerantlik, hamkorlik, empatiya kabi fazilatlarni shakllantiradi. Shuningdek,





korreksion pedagogika tamoyillarini umumiy ta'lim jarayoniga integratsiya qilish ta'lim sifatini oshiradi, har bir bolaning imkoniyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur sharoit yaratadi. Shu bois inclusive ta'limni samarali yo'lga qo'yish — zamonaviy ta'limning ustuvor vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Vigotskiy L.S. Korreksion pedagogikaning asosiy muammolari. — Moskva: Pedagogika, 1983.
2. X.N. Muzaffarova, D. Tangirova "Inklyuziv ta'lim" fani bo'yicha o'quv metodik qo'llanma Jizzax davlat pedagogika instituti. 2011 y.
3. "Inklyuziv ta'lim" fanidan o'quv-uslubiy majmua. A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti. Toshkent-2014.
4. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti: Defektologiya fakulteti tarixi bo'yicha ma'lumotlar. — Toshkent, 2020.
5. UNICEF. Inclusive Education Guidelines. — New York, 2017.
6. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" Qonuni, 2020.
7. "Bolalar huquqlari to'g'risida Konvensiya", BMT, 1989.
8. Siddiqov, A. M. O. G. L., & Boymirzayeva, D. M. Q. (2025). Inklyuziv ta'limni samaradorligini oshirishda qollaniladigan metod va usullar. *Science and Education*, 6(2), 206-209.
9. Siddiqov, A. M. O. G. L. (2025). Inkoniya cheklangan o'quvchilarni ijtimoiy hayotga ijobiy munosabatlarini shakllantirish modeli. *Science and Education*, 6(2), 339-344.
10. Bannayev, M. S. (2024). TA'LIM TIZIMI ISLOHOTLARINI SAMARALI AMALGA OSHIRISHDA O'SPIRINLARNING RUHIY TUKSHUNLIGINING BARTARAF ETISH USULLARI. *Academic research in educational sciences*, 5(TSUE Conference 1), 119-120.

